

133. Ifodaning qiymatini hisoblash

ifoda va uning qiymati,
sonlar, harflar va belgilar




$$\begin{aligned} \text{green circle} + \text{yellow triangle} + \text{red circle} &= 38 \\ \text{green circle} + \text{yellow triangle} &= 26 \\ \text{two red circles} &=? \end{aligned}$$



1. Rasmda hammasi bo'lib nechta narsa borligini aniqlovchi ifoda tuzing va uni yeching.



2. Sxemadagi noma'lum qiymatni toping. Uni katakchaga yozing.



3. Hisoblang. Qaysi ifodani hisoblash mumkin emas?

a) $36 + 21 + (50 - 40)$	b) $45 + (11 + 21)$
d) $42 - 11 + (34 + 30)$	e) $20 + (d - 11)$



4. Masalani yechish uchun ifoda tuzing. Uning qiymatini $x = 17$ bo'lganda hisoblang.
Chiniqish guruhiga yilning boshida x kishi qatnashgan.
Hozir ularning soni 11 nafarga ortgan. Guruhga hammasi bo'lib necha kishi qatnashyapti?






5. Hisoblamasdan taqqoslang.

$47 + 31 \square 31$	$67 + h \square h$	$11 + h \square h + 11$
$52 + 23 \square 52$	$d \square d + 18$	$t - 15 \square t + 15$



6. Masalaga ifoda tuzing va uni hisoblang.

Lola bilan Kamola kontrast dushda: oldin issiq, so'ng sovuq suvda chiniqishdi. Lola har safar dush ostida 10 sekunddan, Kamola esa 20 sekunddan turdi. Kamolaning chiniqish vaqti Lolanikidan qanchaga ko'p?



7. To'g'ri chiziqda nuqtalarni belgilang.

S nuqtani O nuqtadan 6 cm chapga qo'ying.

R nuqtani O nuqtadan 3 cm o'ngga qo'ying.

S va O nuqtalar orasida P nuqtani belgilang.

T nuqtani R nuqtadan o'ngga qo'ying. Nima hosil bo'ldi? Hammasi bo'lib nechta kesma hosil bo'ldi?



8. Sayr paytida o'qituvchi bolalarga o'tloqda yalang oyoq yurishga ruxsat berdi. Agar o'tloqda 12 ta oyoq kiyimi turgan bo'lsa, unda necha nafar bola yalang oyoq yuribdi?